

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



**O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O'RGANISHNING
NAZARIY VA MANBAVIY ASOSLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
m a t e r i a l l a r i
(14-oktyabr, 2022-yil)

PROFESSOR NASIMXON RAHMONOV
tavalludining 70 yilligiga bag'ishlanadi

TOHIKEHT
«FIRDAVS-SHOH»
2022



UO‘K
KBK
R

Rustamova D. va boshq.

O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishning nazariy va manbaviy asoslari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. D.Rustamova, L.Ahmadaliyev, E.Jumanov. – T.: “FirdavsShoh” nashriyoti, 2022-y. – 406 b.

ISBN 978-9943-0000-00– 1

Tahrir hay'ati:

**B.Abdusalimov, I.Majidov. J.Eshonqulov, H.Boltaboyev,
B.To‘xliyev, O.Jo‘raboyev, N.Jo‘raqo‘ziyev.**

To‘plovchilar:

**Dilnoza Rustamova,
Lochinbek Ahmadaliyev,
Elbek Jumanov.**

Ushbu to‘plamga O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va O‘zMU hamkorlikda o‘tkazgan **“O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishning nazariy va manbaviy asoslari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi (14.10.2022 y.) materiallari jamlangan. Anjuman atoqli tuykiyshunos olim, professor Nasimxon Rahmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlandi.

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Ilmiy kengashining Qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan (majlis bayoni №17/2, 05.10.2022 y.).

ISBN 978-9943-0000-0– 1

© Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2022

© “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022



EPOS, XALQ QISSALARI VA ERTAKLARDA “OSHIQ-MA’SHUQA-RAQIB” OBRAZI

Yulduz Ziyayeva,
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada epos, xalq qissalari va ertaklarda “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchlik tizimi va syujet liniyasida “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari o‘rganilgan. Epos har bir millat o‘tmishi bilan bog‘liq ekanligi hisobga olinib, uchlik tizimi ham millat hramoni, ma’shuqa-millat onasi, raqib-millat raqibi sifatida tahlilga tortilgan. Shuningdek, qissa va ertaklarda ham eposlarda bo‘lgani kabi juft Ollohdan ekani, syujet liniyasida “uchrashuv” motivi taqdirga ishora tarzida berilgani qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: epos, qissa, ertak, “oshiq-ma’shuqa-raqib”, “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol”.

Абстрактный: В статье исследуются мотивы “встречи”, “разлуки” и “примирения” в тройственной системе и сюжетной системе “любовник-любовник-соперник” в былинах, народных сказках и сказках. Эпос связан с прошлым каждой нации, взятой лично, и трехчастная система также исследуется как типичная скорость нации, любовник-мать нации, соперник-соперник нации. Сравнительно изучено, что в рассказах и сказках, как и в былинах, пара от Аллаха, а мотив “встречи” в сюжетной системе дается как отсылка к судьбе.

Ключевые слова: былина, новелла, сказка, “любовник-любовник-соперник”, “встреча”, “разлука”, “визал”.

Abstract: In the article, the motifs of “metting”, “separation”, and “reconciliation” are studied in the “lover-lover-rival” tripartite system and plot system in epics, folk tales and fairy tales. The epic is related to the past of each nation, taken personally, and the tripartite system is also researched as the typical speed of the nation. Analyzed as a person, a rival-rival-hero of the nation, a lover-mother of the nation, a rival-rival of the nation, it has been comparatively studied that in short stories and fairy tales, as in epics, the couple is from Allah, and the motive of “metting” in the plot system is given as a reference to fate.

Keywords: epic, short story, fairy tale, “lover-lover-rival”, “metting”, “separation”, “visal”.

Folklor namunalari har bir xalqning uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘tmishi bilan bevosita bog‘liq. Qadimiy janr hisoblangan epos ana shunday xususiyatlari bilan ajralib turadi. Epos janrining spesifikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng bo‘rtib ko‘rinadigan jihat, aynan milliylikning aks etishida. Epos muayyan bir ijodkor qarashlari emas, balki butun bir millatning orzu-intilishlarini ifoda etadi. Barcha xalqlar eposlarida o‘sha millatning o‘tmishi, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy tarixi o‘z aksini topadi. Umuman, eposlar qaysi millat, qaysi xalq o‘tmish hayotini aks ettirmasin, syujet, motiv va obrazlararo tipologik xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Rus olimi M.Baxtin fikricha, epos dunyosi “ota-bobolar” va bobokalonlar”, “birinchilar” va “eng yaxshilar” dunyosidir.¹⁸⁴ Demak, xalqning eng yaxshi ideali sifatida ota-bobolar o‘tmishi turadi. Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov ham ayni fikrlarni tasdiqlaydi: “Epik o‘tmishni

¹⁸⁴ Mixail B. Romanda zamon va xronotop shakllari (Rus tilidan U. Jo‘raqulov tarjimasi) – T.: Akademyashr, 2015. –B.18.

o'zgartirish, qayta idrok etish, qayta baholash mumkin emas. Bir so'z bilan aytganda, eposning aytuvchisi va tinglovchisi mutloq o'tmish kishilari, ular boshdan kechirgan voqelik bilan muloqotga kirishar ekan, unga ideal sifatida qaraydi, uni o'z zamonasi, shu zamona kishilari bilan solishtiradi. Bu jarayonda esa epos voqeligi va qahramonlarini emas, o'z-o'zini qayta idrok etadi, baholaydi".¹⁸⁵ Epos asosida ota-bolalar zamoni, butun bir millat taqdiri turar ekan, biz ushbu bo'lim markaziga olib chiqqan "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi ham milliylikdan o'sib chiqqanligini va shu maqsadga ko'ra asar markaziga qo'yilishini alohida ta'kidlashni joiz deb topdik.

Haqiqatan ham, "Oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi millat vakillarining tipik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Oshiq-timsolida millat vakillariga xos bo'lgan vatanparvarlik, mardlik, jasorat, or-nomus, g'urur; ma'shuqa timsolida sadoqat, or-nomus masalasi, mardlik, jasurlik, yovga qarshi tik borishi, oilasi sha'ni uchun millat onasi sifatida raqiblar bilan teng kurashishi; raqib timsoli millatga qarshi qo'yilishi, millatni parokanda qilishga, yo'q qilishga qaratilgani aks etadi. Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov epos uchligi haqida fikr bildirar ekan: "Epos uchligi qisman ilohiy kitoblar, qisman mif ta'sirida shakllandi. Zamonlar o'zgarishi (bu o'rinda mif hukmron bo'lgan – johiliya davrlari va ilohiy aqidalar hukm surgan ma'rifat davrlari nazarda tutilyapti)ga qarab, ayni uchlik mohiyati, shuningdek, epos syujet tizimi ham turli o'zgarishlarga uchradi. Obrazlar ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik jihatdan milliylashdi. Oshiq – milliy qahramonga, ma'shuqa – millat onasiga, raqib – millat raqibiga aylandi (bunda insoniyatga xos ijtimoiy-milliy maqsadlar ifodalanadi)".¹⁸⁶

Bizningcha ham, eposlarda kelgan oshiq millat qahramoni sifatida uchlik tizimida asosiy o'rinda turadi. Quyida eposlardagi "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi millat vakillarining tipik xususiyatlarini o'zida jamlagan prototipi ekanligi haqidagi ilmiy gipotezani asoslashga urinib ko'ramiz.

Uchlik tizimining mukammal tasviri "Alpomish"da ko'rinadi. Chunki bu tizimga xos bo'lgan yaxshi ko'rish, uchrashuv, ayriliqda kechgan iztirobli onlar, qaytib kelishi va yana sevishganlarning visolga erishuvi kabi masalalar bir tizim sifatida, aynan, "Alpomish" dostoni markazida turadi. Chunki "Alpomish" dostoni muayyan epik tizimga ega, syujet jihatdan ham, obrazlar jihatdan ham o'z yakuniga yetgan, maromiga yetkazib kuylangan, birbutun hodisa hisoblanadi. Boshqa eposlarda bunday tizimlilik, butunlik yo'q, syujeti tarqoqdek, tugallanmagandek ko'rinadi, oshiqlar va ma'shuqalar o'rtasidagi uchrashuv, ayriliq, visol motivlari ham to'la namoyon bo'lmaydi. Masalan, "Ramayana" va "Maxabxarata" birgalikda butunlik hosil qiladi yoki "Iliada" va "Odisseya" dostonlari birlashgandagina, ularga bitta qilib qaraganimizdagina epos vujudga keladi. "Alpomish"ga mukammal epos sifatida qarab, uchlik tizimining ham muayyan bir ko'rinishda, boshqa eposlarga qaraganda to'liqroq

¹⁸⁵ Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G'G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2015.– B.83.

¹⁸⁶ Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa" sida xronotop poetikasi. – T.: Turoqn-iqbol, 2017. – B.191.

holda o'z aksini topganligini inobatga olib, diqqat markazimizga ayni eposni olamiz. "Alpomish" dostonida millat o'zini anglashi, ruxiy-ma'naviy yuksalishi, o'z qahramonlari orqali millat taqdirini ko'rishi e'tiborlidir. Ming yillik tarixga ega doston yaratilgan davrda uni yaratgan xalq turmush tarzi o'zgarib, islom dinining ta'sirida ma'naviy yuksalish yuz berdi. Ma'naviy jihatdan yetuk, ilmi xalq vakili sifatida millat qahramonlari maydonga keldi. Millat taqdiri Alpomish obrazida millatni himoya qilish bilan bog'langan bo'lsa, Barchinoyda qalmoq yurtida o'ziga qo'shib millatni ham qul qilmaslik, Kashal yurtidagi ildiz otgan johillik qo'lida xalq ma'naviyatini o'ldirmaslik, Surxayil kampir, Ko'kaldosh, O'ltontoz, Qalmoqshoh kabilarda esa hiyla bilan nafaqat oshiqni yengish, millat kelajagiga ham to'siq bo'lish, bo'ysundirish, xalq birdamligiga nifoq solishda ko'rinadi.

Eposdagi Alpomish obrazi birinchi navbatda oshiq, millat qahramoni. Alpomishning tug'ilishi va taqdirida ilohiylik borligini, alplik, qahramonlik sifati bilan dunyoga kelganini, islom aqidalari bilan ulg'ayganini, kitob o'qish, ilm olish barobarida shohlik shavkatiga munosib sipohlik ilmini puxta o'rgangani qahramonni boshqalardan ajralib turishini ko'rsatadi. Birinchi navbatda Alpomish alp. Folklorshunos olim Shomirza Turdimov "Go'ro'g'li dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari" deb nomlangan tadqiqotida yigirma bitta alplik tizimini ishlab chiqadi. O'zbek folklorshunosligida yangilik bo'lgan bu tizimni olim shomonlikka tayangan holda talqin qiladi. Alpomishda ham alpga xos xususiyatlarning bir nechtasi jamlangan. Shulardan eng muhimlari, qahramon taqdiri oldindan belgilanishi, Alpomishga taqdiri Shohimardon pir orqali aytiladi, qahramonning ikki ismli bo'lishi, Shohimardon pir tomonidan dastlab Hakimbek deb ism qo'yiladi, yetti yoshida birinchi qahramonlikni ko'rsatganidan so'ng Alpomish nomini olishi, qahramonning alp sifatida tan olinishi, qahramon alp sifatida o'z missiyasini bajarishga kirishishi, ya'ni tartibsiz jamiyatda tartib o'rnatishi yoki yangi tartibdagi mamlakatga asos solishi, tarqoq mamalakatni birlashtirishi kerakligi, Alpomish Boysun-Qo'ng'iro't elini qayta birlashtiradi. Bizningcha, Alpomishdagi bu xususiyatlar folklorshunos olim Shomirza Turdimov aytganidek, shomonlikka emas, balki islom manbalariga, payg'ambarlar hayoti va faoliyatiga borib tutashadi. Alpomishdagi ana shunday jihatlar uni alp sifatida namoyon qiladi. Alp ham ma'rifat yo'lidagi millat oshig'i. Eposdagi zakot voqeasi ham Alpomishning boshqalardan ilmi, ma'rifatli ekanligini ko'rsatadi. Dostondagi oshiq obrazi Odam (a.s) bilan tutashsa, uchlik doirasida kechadigan "uchrashuv-ayriliq-visol" motivlari obraz-triadadan keyingi bosqichdagi "ilk syujet" bilan bog'lanadi. Biz aynan "ilk syujet"ga asoslanib motivlarni tekshiramiz.

Juftlik ilohiy bir tarzda bir-biri uchun yaratiladi, ya'ni Ollohdan tilab olinadi: "Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!".¹⁸⁷ Farzandlar tug'ilgach Shohimardon pir qalandar qiyofasida kelib ularga ism qo'yadi. "Shohimardon pir Boybo'rining o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi. O'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lining o'rni dog'

¹⁸⁷ Alpomish. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998.

bo'lib, besh panjaning o'rnini bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarining qizini otini Oybachin qo'ydi. Ana shunda shohimardon pir Hakimbekka Oybachinni unashtirib, beshikkerti qilib: "Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin. Omin, Allohu akbar", – deb fotihani betiga tortdi".¹⁸⁸ Ayni matnda, Sharq xalqlariga xos bir xususiyat, ya'ni oshiq va ma'shuqaning taqdir bilan tug'ilganligi, ularning bir-biri uchun yaratilganligi ko'rinadi. Sharq-islom dunyosida juft Ollohdan, har bir inson o'z jufti bilan tug'iladi degan qarash bor va bu qarash eposlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, beshikkerti qilinishida ("Alpomish"), uzukda ("Ravshan"), tushda bir-birini ko'rib uzuk almashishida ("Kuntug'mish") taqdirga ishora qilinadi. Taqdir bilan tug'ilishning ildizlari ilohiy xabarlardagi Odam (a.s) va Havvo onamizning yaratilishiga borib tutashadi. Oshiq va ma'shuqaning taqdir bilan tug'ilishi, bir-birini tushida, ko'zgu orqali yoki boshqa bir g'ayritabiyy hodisalar orqali ko'rib bilib oshiq bo'lishi motivi, keyinchalik sharq klassik dostonlariga ham ko'chgan. Birinchi o'zbek romani "O'tkan kunlar" da Otabek va Kumushning uchrashuvi "taqdir shamoli" deya talqin qilinadi. G'arb xalqlari bu masalaga biroz boshqacha yondashadi. Bir qarashda eposlardagi farq ham yaqqol ko'rinadi. "Iliada" dostoni qahramoni Paris Yelinani ko'rib oshiq bo'ladi va olib qochadi. Bu yerda oshiq va ma'shuqa hech qanday taqdir ishoratisiz bir-birini real ko'radi. Qolaversa, bu paytda Yelina allaqachon Minelay bilan turmush qurgan edi. G'arb eposlarida uchrashuv motivi real sodir bo'ladi, keyinchalik ushbu motiv antik yunon romanlariga ko'chgan. "Nikoh yoshidagi yigit va qiz. Ularning nasl-nasabi noma'lum yoki sir saqlanadi. Yigit va qiz mislsiz go'zalliklari bilan boshqalardan ajralib turishadi. Shuningdek, ular haddan ziyod pokiza (ma'sum). Yigit bilan qiz kutilmaganda (ko'pincha tantanali bayramlarda) uchrashib qolishadi. Bir-birlarini lahzalik, jilov bilmas ehtiros bilan sevib qolishadi".¹⁸⁹ Demak, G'arb adabiy-estetik qarashlarida oshiq-ma'shuqa tasodif tufayli bir-birini topadi, Sharq xalqlarida esa hamma jufti bilan yaraladi va taqdir qilinadi, juft Ollohdan, xuddi Havvo onamiz Odam (a.s) uchun yaratilganidek.

Yana bir jihat. Ilmga ixlosi, islom qoidalaridan xabardorligi, har bir musulmon uchun islom farzlaridan bo'lgan zakotni amalga oshirish lozimligi haqidagi fikrlari Alpomishni ma'nan mukammalligini ko'rsatadi. Aynan zakot voqeasi Boysarini dilini og'ritadi va o'n ming uyli qo'ng'iroq eli bilan dushman yurtiga ko'chib ketadi. Boysari "Alpomish mulla bo'libdi, bezakot mollarga zakot solibdi" deb xafa bo'ladi. Shu voqea sabab Alpomish va Barchinoy yo'llari ayro tushadi. Alpomishga atalgan qizni Kashal elida qalmoq alplari ovozasini eshitib xotinlikka olmoqchi bo'ladi. Oshiqning o'z ma'shuqasini dushman yurtida talash bo'lishi, uni dushmanlariga berib qo'yish birinchidan or-nomus masalasi, ikkinchidan, millat masalasi hisoblanardi. Ma'shuqani dushman qo'lga berib qo'yish, xalqning, millatning ham qul qilinishiga olib

¹⁸⁸ Ko'rsatilgan manba, – B.17.

¹⁸⁹ Mixail B. Romanda zamon va xronotop shakllari (Rus tilidan U. Jo'raqulov tarjimai) – T.: Akademyashr, 2015. – B.47.

kelardi. Endi oshiq oldida, nafaqat ma'shuqa uchun, balki butun bir millat uchun kurashish masalasi ko'ndalang turardi.

Alpomish yov qo'lida azob chekayotgan Oybarchini qutqarish uchun yolg'iz o'zi yo'lga chiqadi. Yo'lda bir mozorotda tunab qolishi Alpomish taqdirida muhim o'rin tutadi: "Borsa, bir ko'hna mozorot ekan. Bu chiltanlarning bir manzilgoh joyi edi. Hakimbek chiltanning manzilgoh joyi ekanini bilmadi. "Kech qolgan odam mozorotda yotadi, degich edi. Shul mozorotda yotsammikan, yo shu yerdan ketsammikan?! "Behuda odami yo'q mozorotda yotishligim qanday bo'ladi ekan: behuda yotsam, bu o'liklarning men bilan ishi bo'lmasa, mehmon keldi deb mendan xabar olmasa".¹⁹⁰ Alpomishning qabristonda tunab qolishi, uning taqdiriga muhim bir ishora. Tunda uyquga ketgan Alpomish ruhunatini Barchinning ruhunati bilan chiltanlar uchrashtiradi: "Chiltanlar ilmi karomat bilan Chilbir cho'lidan, Oyna ko'lidan, baxmal o'tovda uxlab yotgan yeridan, Barchinning ruhini olib keldi tanidan. Alpomish munda uxlab yotibdi, uxlab yotgan yeridan buning ham ruhini tanidan oldi. Alpomishning ruhi bilan Barchinning ruhini o'rtada bir yerga qo'ydi. Bir kosa sharobi antahur chiltanlardan Barchinning ruhiga yetdi".¹⁹¹

Oshiq-ma'shuqaning ilk fayzli uchrashuvi tushda, uyquda ilohiy bir tarzda sodir bo'ladi. Garchi Alpomish va Barchinoy bolalikdan birga o'sgan bo'lsa ham, oshiq va ma'shuqa sifatida ilk bor bir-birini tanishi, aynan ruhunat bilan bog'liq holda ro'y berdi. Alpomish endi chin oshiqqa aylandi. Keyingi tushda Alpomish cho'ponlarning qo'shxonasida, Barchinoy baxmal o'tovda va ularga eng ko'p yordam bergan Qorajon Kashal g'orida Rasul Payg'ambarni ko'rishi kelajak taqdirga ishonch edi. Alpomishning raqiblarga qarshi kurashida Qorajon unga ham yo'ldosh, ham do'st bo'ladi. Alpomish o'z raqiblarini munosib baholay oladi, ularga qarshi kurashda barcha energiyani ma'shuqasidan oladi. Alpomish Oybarchinga ega chiqib millat birligini saqlab qoladi. Oshiq-ma'shuqa visolga erishib, to'y-tomosha bilan Qo'ng'iro't eliga qaytadi va oila, millat davomchisi Yodgor dunyoga keladi...

Alpomish ikkinchi bor Boysarini qutqarish uchun yo'lga chiqadi. Zotan, uning raqiblari to'qson alpning onasi Surhayil kampir va Qalmoqshoh o'ta mug'ombir, Alpomishni kuch bilan yengib bo'lmasligi tayin edi. Surxayl kampir va Qalmoqshoh hiylasi bilan Murodtepa yaqinida Alpomish zindonband etiladi. "Mifologiya va ertaklarda raqiblar juda chuqur, tubi ko'rinmas chohlar (narigi dunyo) yaratib, qahramonni o'sha yerda tutqunlikda tutsalar, dostonida esa yerni kovlab, zindon qazib, qahramonni shu yerga, u uyquga ketganida qamaydilar. Ertaklardagi yer osti olamining dostonida zindonga almashinishining o'zi baxshi-ijodkorlarning reallikka, hayotiylikka tomon intilishining bir ko'rinishidir".¹⁹² Alpomishni ham raqiblari sarmast holatda zindonband etadi. Qahramon yetti yil zindonda tutqunlikda saqlanadi. Bizningcha, ushbu motiv ilohiy manbalarga

¹⁹⁰ Ko'rsatilgan, 1998. – B.91.

¹⁹¹ Ko'rsatilgan manba, 1998. – B.91.

¹⁹² O'zbek folklorshunosligi. Antologiya. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriëti. 2017. –B. 211.

borib tutashadi (Yusuf alayhissalomni quduqqa tushirilishini eslang). Zindondan qutilgach, raqiblarini yengib o'z yurtiga qaytadi. Dostonning eng qiziq va muhim o'rinlari, aynan Alpomish va Ultontoz bilan bog'liq syujetlar hisoblanadi. Alpomish va Barchinoy bir oila, bir millat edi, Ultontoz ana shu oilani, millatni yo'q qilishga qaratilgan raqib sifatida gavdalanadi. Ultontoz, nafaqat Barchinga, balki u orqali butun bir xalqqa, taxtga da'vogarlik qilayotgan edi. Qultoy qiyofasida borib, raqiblarini mag'lub qilgan Alpomish millatni birlashtiradi. Umuman olganda, Alpomish Barchinni himoya qilishida, u uchun kurashishida, dushmanlarga qarshi turishida, sinovlarni yengib o'tishida, xalqni birlashtirishida, ana shu xalq vakillarining tipologik xususiyatlarini o'zida jamlagan oshiq sifatida gavdalanadi. Endi bu oshiq, boshqa oshiqlardan farq qiladigan milliy qahramonga aylandi.

Barchinoy harakatlarining dadilligi, dushmanlarga yolg'iz o'zi tik borishi, barcha talabgorlarga birday shart qo'yishi tahsinga loyiq. Bir o'rinda makkor raqiblarning tuzog'ida azob chekib, yorining yo'liga ko'z tikkan ojiza ayol bo'lsa, bir o'rinda bedarak ketgan yoriga sadoqat saqlab, farzand tarbiyalayotgan millat onasi sifatida ko'rinadi. Barchinoy har tomonlama Alpomishga munosib. Barchinoyning Qalmoq yurtida chorasiz qolgan otasini, xalqini o'ylab, mustaqil qaror qilishi, yolg'iz o'zi yovlarga qarshi tik borishi, to'qson alpdan qo'rqmasdan ularga rad javobini berishi uning jasurligidan darak beradi.

Buni eshitgan to'qson alp o'zbekning qizini dami baland ekan deyishadi. Barchinoy zo'rlik bilan olib chiqmoqchi bo'lgan Ko'kamanni "Yo, Shohimardon pirim", – deb ko'tarib yerga yiqitadi. Barchinoyning o'zini tutishi, sovchilarga bergan javobi, raqiblarga qarshi kurashishi, nafaqat or-nomusi, sha'ni uchun, balki millat, xalq uchun kurash edi. Chunki turmushga chiqdi degani millat parchalandi degan gap edi. Millatning butunligi, davomiyligi Alpomish bilan Barchinoyni turmush qurishi bilan qaytishi bilan belgilangan, millat birligining belgisi edi. Doston syujetida Alpomish yetti yil bedarak ketgan vaqtida Barchinoyning o'zini tutishi, Yodgor farzandiga aytgan so'zlari uni millat onasi sifatida gavdalantiradi:

*"O'lmasa Yodigor bolam er yetar,
Omon-eson bolam o'lmay er yetsa,
Boybo'rining yuragida cher ketar,
Otasin o'rnini Yodgorjon tutar.
Ota yurtin Yodgor qo'zim tebratar,
G'anim bo'lgan dushmanlarni bo'zlatar,
Otasi er edi, erday bo'p o'tar,
Otasining yurtin shunday bo'p tutar."*¹⁹³

Umuman, Barchinoy obrazi dushman yurtida alplarga qarshi kurashishi orqali millat ayoli mardligini, sadoqatini ifodalasa, o'z yurtida Ultontozga qarshi turishida, Yodgorga aytgan so'zlarida endi ma'shuqa millat onasiga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

¹⁹³ Ko'rsatilgan manba. 1998. – B.232.

Uchlik tizimi dostonga ko'chganda raqib obrazini bir necha talqinda ko'ramiz. Epos dunyosiga ko'chgan raqiblar millatga qarshi qo'yilishi, millatni parokanda qilish, yakson qilish, millatni yo'q qilishga qaratilgan kuch sifatida maydonga chiqadi. "Alpomish" dostonidagi raqiblarni ikkiga ajratish mumkin: dushman yurt va o'z millatidan chiqqan raqiblar. Dostondagi Qalmoqshoh, Surxayl kampir va to'qson alp dushman yurt raqiblari bo'lsa, Ultontoz millatdan chiqqan raqib sifatida Alpomishga qarama-qarshi qo'yiladi. Surxayl kampir va o'g'illarining Barchinoy ta'rifini eshitib unga talabgor bo'lishining o'zida millatga da'vogarlik bor. "Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo'lmas, yuringlar, to'qsonimiz ham boraylik, o'zbekning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olayik. O'rtada jovlik xotinli bo'p qolayik".¹⁹⁴ Raqiblarning Barchinoy qo'ygan shartlarni bajara olmasligi, unga erishish yo'lida har qanday tubanlikka borishini biz Alpomish tomonidan harakat qilayotgan Qorajonga tuzoq qo'yganida ko'ramiz. Eposda ularning harakatlari ancha passiv. Surxayl kampirning harakatlari ko'proq ko'zga tashlanadi. "Dostondagi Surxayl kampir obrazini olib ko'radign bo'lsak, u endi ertaklardagi jodugar, maston kampir obrazlaridan farq qiladi. Doston qahramoniga qarshi qaratilgan kampirlar tasvirida ham reallikka intilish ko'rinadi. Shum, jodugar kampir ertaklarda aftiyuzi burishgan, hamma bilan urishgan odamxo'r, kishilarga yomonlik qiluvchi sifatida berilsa, Surxayl kampir dostonda real, bolalarining o'limi uchun Alpomishdan o'ch olishga kirishgan mug'ombir, vahshiy qasoskor qiyofasida tasvirlanadi".¹⁹⁵ Eposdagi raqiblar harakati xaotik tus oladi, shaytoniy nafslari sabab har qanday tubanlikka borishadi. "Alpomishni Barchinoydan ayirib, uning barcha ezgu ishlariga, alpik faoliyatiga nuqta qo'ymoqchi bo'lgan, joniga qasd qilgan, yetti yil tutqunlik chohida saqlagan Surxayl kampir ham aslida bu dunyoning odami emas, balki yer osti, xaos dunyosi vakilidir".¹⁹⁶ Raqiblardagi bunday harakatni boshqa eposlarda ham uchratishimiz mumkin, Masalan, "Ramayana" eposidagi Ravan hiyla ishlatib, Sitani olib qochadi, "Iliada"da Minelay ham yog'och ot yasaydi va shu orqali jangda qo'li baland keladi. Dostondagi yana bir raqib Ultontoz obrazi orqali beriladi. Ultontoz Boybo'rining Bodom cho'ridan bo'lgan o'g'li. Cho'ridan bo'lgan bola deb hech kim pisand qilib gapirmagan. Xizmatkor qullar qatorida yurgan Ultontoz ozg'intoy bir yilqi boqsa ham, kattalik qilib maqtanadi, kibrilanadi. Alpomish bilan bir oila bo'lsa ham, bir el bo'lsa ham Ultontoz ana shu xalqning birdamligiga, millatning bo'linishiga qarshi qo'yiladi. Alpomish Kashal elida o'ldi degan xabardan so'ng, Ultontoz harakatni boshlaydi. Avvalo, Qorajonni odamlardan ajratib, Olatog'ga yuboradi, Qaldirg'ochoyimni Bobir ko'lida tuya boqishga buyuradi. Butun xalqni zulmi ostida bo'ysundirgan Ultontoz: "Endi

¹⁹⁴ Ko'rsatilgan manba. 1998. – B.59.

¹⁹⁵ O'zbek folklorshunosligi. Antologiya. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriëti, 2017.–211-212.b.

¹⁹⁶ Jo'raqulov U. Nazariy poetaka masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriët-matbaa ijodiy uyi, 2015.–B.52.

Barchin ham faqirning tani-da, ikki boshdan bizga tegadi”¹⁹⁷ degan soʻzlari uning ma’naviy jihatdan qoloq, nafs quli boʻlgan shayton qiyofasidagi inson ekanligini koʻrsatadi. Umuman, doston syujeti orqali ma’shuqaga da’vogar raqiblar millatga qarshi qoʻyiladi. Ularning harakatlari millatni yoʻq qilish, xalqni boʻlinib ketishi, yakson boʻlishiga qaratilgan. Kuzatishlarimiz shuni koʻrsadiki, eposlardagi oshiq Odam (a.s)ga, ““uchrashuv-ayriliq-visol” motivlari “ilk syujet”ga bogʻlanadi.

Xalq qissalarida ham sof ishqiy mavzudagi qissalarni topish mumkin. “Tohir va Zuhra”, “Bahrom va Gulandom”, “Hurliqo va Hamro”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Vomiq va Uzro” ana shunday sof tuygʻular kuylangan qissalardan hisoblanadi. Ushbu qissalar markazida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligi turadi. Ishqiy mavzudagi qissalarni eʼtibor bilan kuzatadigan boʻlsak, uchlik tizimi birbutun tizim sifatida kelganini, obrazlarning individual xususiyatlari tizimli holda namoyon boʻlganini koʻrishimiz mumkin. Qissalardagi asosiy xususiyat xuddi eposlarda kelgani kabi farzandsizlikdan aziyat chekkan otalarning Yaratgandan farzand tilashi, oshiq va ma’shuqaning taqdir bilan tugʻilishi yoki ularning otalari tomonidan ahdlashuvi beriladi. Qissalarda “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari tizimli holda ishlaydi. (xoh foniyl dunyoda, xoh abadiy hayotda) Xalq qissalari ichida “Tohir va Zuhra” eng keng tarqalgan syujetlardan hisoblanadi. Ayni syujetga qurilgan ertak, doston va qissalarni kuzatadigan boʻlsak, ayrim oʻzgarishlarni hisobga olmaganda, barchasida Tohir va Zuhraoning sof, somimiy, toza tuygʻulari kuylanganiga guvoh boʻlamiz. “Alpomish” dostonida kuzatganimizdek, “Tohir va Zuhra” qissasida ham Qoraxon podsho va Sarixon vazirning farzandsizlikdan zor yigʻlashi tasviri beriladi. Oshiq va ma’shuqaning taqdiri hali ular tugʻilmasidan belgilanadi, ya’ni Qoraxon va Sarixon quda boʻlishga kelishib olishadi. Farzandlar balogʻat yoshida bir-biriga koʻngil qoʻyadi, bundan xabar topgan podshoning fe’li ayniydi, atrofidagilar uni yoʻldan ura boshlaydi. Shayton vasvasasiga uchgan podsho Tohirni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Shu lahzadan boshlab oshiq va ma’shuqaning oʻrtasida “ayriliq” motivi ishlaydi. Oshiqning sinovlarda toblanishi, ma’shuqasiga boʻlgan sadoqati, mardligi juda chiroyli tasvirini topgan. Ayriliqni boshdan kechirgan sevishganlar uchrashuvi bogʻda sodir boʻladi. Afsuski, bu visol foniyl hayotdagi oxirgi, abadiy visol uchun bir debocha vazifasini oʻtaydi. Oshiq vafot etgach, visol uchun ma’shuqa faol harakat qiladi. Sevishganlarning raqibi Qorabotir boshqa raqiblardan farq qiladi, undagi alam va nafrat shu qadar kuchliki, ular vafot etishganda ham birga boʻlishini istamaydi, rashkdan joniga qasd qiladi va uni qoʻshqabr Tohir va Zuhraoning oʻrtasiga qoʻyishadi¹⁹⁸. Ishqiy mavzudagi qissalarda koʻproq ma’shuqa harakatlanadi, qolgan voqealar uning atrofida kechadi.

“Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi oʻzbek xalq ertaklarida ham tizim sifatida ishlaydi. Oʻzbek xalq ertaklarida ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash,

¹⁹⁷ Koʻrsatilgan manba. 1998.–B.231.

¹⁹⁸ Oʻzbek xalq ijodi. Koʻp tomlik. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiёт va sanʼat nashriёti. T.:1974.

ezgulikka chorlash, yovuzlikdan qaytarish g'oyasi har doim birlamchi masala bo'lib kelgan. Bekorga xalqimiz "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" deyishmaydi. Qadimiy janrlardan bo'lgan ertaklarda xalqqa xos an'ana va urf-odatlar, xalqning orzu-intilishlari, o'y-xayollari o'z aksini topgan. Uchlik tizimining ertaklarda kelishi ana shu g'oyalarga bevosita xizmat qiladi. Xususan, ishqiy mavzudagi "Tohir va Zuhra", "Gulshoh bilan Varqa", "Orzijon bilan Qambarjon", "Sherzod va Gulshod", "Xurshid bilan Laylo", "Guli Qahqah" ertaklarini misol keltirish mumkin. Sanab o'tilgan ertaklar keng tarqalgan syujetlar asosiga qurilgan, ayni syujet asosiga qurilgan qissa va dostonlar ham bor. Xuddi xalq dostonlarida bo'lgani kabi farzandsizlikdan qiynalgan otalar Yaratgandan farzand tilashi, tilab olingan oshiq va ma'shuqalar taqdiri oldindan belgilangani ko'rinadi. Masalan, "Tohir va Zuhro" ertagida farzandsizlikdan xafa bo'lib, podsho bilan vazir bog'da o'tirishganda bir chol kelib ularga ikkita olma beradi: "Men olmani sizlarga shu shart bilan berdimki, qaysi biringizning xotiningiz o'g'il tug'sa otini Tohir qo'ying, qaysi biringizning xotiningiz qiz tug'sa, otini Zuhra qo'ying. Ammo ularni bir-biridan ajratmang. Katta bo'lib voyaga yetganida quda bo'linglar"¹⁹⁹. Tohir va Zuhro voyaga yetganida qizning otasi ularning visolga yetishuviga qarshilik qiladi. Ota sabab oshiq-ma'shuqa yo'li ayro tushadi. Ertaklarda kelgan uchlik tizimida ma'shuqa markazga qo'yilishi, uning oshiqni harkatga keltiruvchi energiya manbai sifatida talqin qilinishi, ko'pincha oshiq va ma'shuqaning o'limi bilan yakunlanishi ko'zga tashlanadi. An'anaviy "uchrashuv", "ayriliq", "visol" motivlari tizim sifatida ko'rinadi. Ertaklardagi raqiblar yer osti (xaos)dunyosi vakillari bo'lib oshiqning yo'lini turli nayranglar bilan to'sadi.

Uchlik tizimi eposlarga kelib umumlashdi. Endi obrazlar alohida shaxsdan millat miqyosiga ko'tarildi. Bunda eposning xususiyatidan kelib chiqib, obrazlar millat vakillarining tipik xususiyatlarini o'zida aks ettirdi. Xususan, oshiq-milliy qahramon, ma'shuqa-millat onasi sifatida talqin qilindi. Raqib nafaqat oshiqqa, balki butun bir millatga qarama-qarshi qo'yildi.

Ertaklarda kelgan uchlik tizimi qissa va dostonlardagi an'anaviy oshiq va ma'shuqaning taqdir bilan tug'ilishi xususiyatini o'zida aks ettirdi. O'zbek xalq ertaklarida uchlik tizimi ezgulik va yovuzlik kurashi fonida kechadi. Raqiblar asosan yer osti (xaos) dunyosi vakillari (dev, jin) bo'lib, oshiq yo'lini to'sishda har qanday tubanlikka borishadi.

Umuman, "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchligi genezisi jihatidan o'ta qadimiy ya'ni ilohiy manbalardan kelayotgan an'anaviy tizim bo'lib, tadrijiy rivojlanib, mifologik manbalarda buzildi, xalq og'zaki ijodida umumlashdi, klassik adabiyotda mohiyat jihatidan ilk manbaga yaqinlashdi va shu tariqa zamonaviy nasrga o'tib, tarixiy-an'anaviy xususiyatlarini o'zida saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mixail B. Romanda zamon va xronotop shakllari (Rus tilidan U. Jo'raqulov tarjimai) – T.: Akademiya nashr, 2015.

¹⁹⁹ O'zbek xalq ertaklari. 1-tom. T.: O'qituvchi NMIU. 2007. – B.124-135.

2. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. O'zbek folklorshunosligi. Antologiya. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2017.
4. Alpomish. – T.: Sharq, 1998.
5. Jo'raqulov U. Ishq qismati shu azal-abad // "Tafakkur" jurnali, 2014.

.....

MAVLONO QORI ZOKIRNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI XUSUSIDA

Iskandar Madgazyev,
AnDU o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri va XX boshlari Andijon adabiy muhiti vakillaridan Mavlono Qori Zokir Muhammadnazar o'g'li hayoti va adabiy merosi tadqiq etilgan. Shoir ijodiga oid qo'lyozma devon va boshqa manbalar xususida mufassal ma'lumot berilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ilmiy ahamiyati borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, qo'lyozma, devon, bayoz, dastxat, nasta'liq, g'azal, mushoara.

Аннотация: в статье исследуется жизнь и литературное наследие Мауланы Кори Закира, одного из представителей литературной среды Андижана конца 19 – начала 20 веков. Даются подробные сведения о рукописном диване и других источниках, связанных с творчеством поэта, обсуждаются их особенности и научная значимость.

Ключевые слова: литературная среда, рукопись, диван, баяз, автограф, наста'лик, газел, мушоара.

Annotation: the article examines the life and literary legacy of Maulana Qori Zakir, one of the representatives of the literary environment of Andijan in the late 19th and early 20th centuries. Detailed information is given about the manuscript divan and other sources related to the poet's work, and their specific characteristics and scientific significance are discussed.

Key words: literary environment, manuscript, divan, bayoz, autograph, nastaliq, ghazal, mushoara.

XIX asr so'nggi choragi XX asr boshlari adabiyoti vakillaridan biri Mavlono Qori Zokir Muhammadnazar o'g'lidir. Qori Zokir yuksak badiiy mahorati orqali o'z ijodida o'tmish shoirlar ijodiy tajriba va yutuqlaridan istifoda etgani holda, zamonga monand ruhda, ko'tarinki kayfiyatdagi barkamol she'riyat yarata bilgan so'z san'atkoridir.

Qori Zokir hayoti va ijodi bo'yicha dastlab tadqiqotlar olib borgan filologiya fanlari nomzodi Nabijon Qobulov o'zining "Andijonlik taraqqiyparvar shoirlari" nomli monografiyasida uning tug'ilgan yilini 1870 deb ko'rsatadi²⁰⁰. Yana bir adabiyotshunos olim Vahobjon Dadaboyev esa Qori Zokirning hamqishlog'i va shogirdi bo'lgan Xalq shoiri Zokirjon Habibiy ijodiga bag'ishlangan nomzodlik ishida shoir tavallud topgan yil sifatida 1883

²⁰⁰ Qobulov N. Andijonlik taraqqiyparvar shoirlar. – T.: Fan, 1977. 46 bet.